O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, 100000, Shahrisabz ko'chasi, 3-uy
E-mail: info@sqb.uz, web-site: www.sqb.uz

"O'zsanoatqurilishbank" ATB
Aksiyadorlari umumiy
yig'ilishining
2025-yil " 10 " aprel dagi
01/2025 — son bayoniga
2 — ILOVA

"O'zsanoatqurilishbank" ATB
Kuzatuv kengashining
2024-yil "27" dekabr dagi
2024/38 — son qaroriga
1 — ILOVA

"O'zsanoatqurilishbank" ATB
Boshqaruvining
2024-yil "2" dekabr dagi
700 — son qaroriga
ILOVA

"O'zsanoatqurilishbank" ATB Boshqaruvi to'g'risidagi
NIZOM
(Yangi tahrir)

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlari, Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 3252, 2020 yil 30 iyun), Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 3254, 2020-yil 30-iyun) va boshqa qonunchilik hujjatlari hamda Bank Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Ushbu Nizom "O'zsanoatqurilishbank" ATB (keyingi o'rinlarda – Bank) Boshqaruvining maqomini belgilaydi va uning ishini, a'zolarini tayinlash tartibini hamda ularning huquq va majburiyatlarini tartibga soladi.

3. Bank boshqaruvi bankni boshqarishning ijro etuvchi organi bo'lib, u Bank kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan faoliyat strategiyasi va uni boshqarish tizimiga muvofiq bankning kundalik faoliyatiga rahbarlik qiladi hamda uning natijalari uchun javobgardir.

4. Bank Boshqaruvi Bankning aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Bank kuzatuv kengashiga hisobdordir.

5. Bank Boshqaruv raisi Bank Boshqaruviga rahbarlik qiladi. Boshqaruv tarkibiga Raisdan tashqari lavozim bo'yicha Bank Boshqaruv raisi o'rinbosarlari, Risk bosh direktori, Moliyaviy direktor, Bankning bosh buxgalteri, Bankning yuridik xizmati rahbari, shuningdek Bosh Bankning asosiy tarkibiy bo'linma (departament va boshqarma)lari boshliqlari kiritilishi mumkin.

2-bob. Bank Boshqaruvini tashkil qilish

6. Bank kuzatuv kengashi Bank Boshqaruvining miqdoriy tarkibini belgilaydi. Bank Boshqaruvi a'zolarining soni 9 (to'qqiz) kishigacha bo'lgan toq sondan iborat miqdorda bo'ladi.

7. Bank Boshqaruvining miqdoriy va shaxsiy tarkibi bo'yicha qarorlar Bank kuzatuv kengashi umumiy tarkibining oddiy ko'pchilik ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi.

8. Bank Boshqaruvi a'zolarining avvalgi tarkibi Bank kuzatuv kengashi tomonidan Boshqaruvning yangi tarkibiga cheklanmagan marotaba tayinlanishlari mumkin. Bunda, Bank Boshqaruv raisi sifatida tayinlangan (qayta tayinlangan) shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Bank Boshqaruv raisi bo'lishi mumkin emas.

9. Bank Boshqaruv raisi, uning o'rinbosarlari, Bankning bosh buxgalteri nomzodlari Bank kuzatuv kengashi tomonidan tayinlanadi.

Bank Boshqaruvining boshqa a'zolarini Bankning boshqa tarkibiy bo'linmalari rahbarlari yoki yuqori malakali mutaxassislari tarkibidan Bank Boshqaruv raisining taqdimiga ko'ra Bank kuzatuv kengashi tomonidan tayinlanadi. Nomzodlar qoida bo'yicha, bank-moliya tizimida uch yildan kam bo'lmagan rahbarlik lavozimlarida ish tajribasiga ega bo'lishi kerak.

10. Bank Boshqaruvi a'zoligiga nomzodlarni Bank kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqish yakka tartibda nomzod ishtirokida amalga oshiriladi. Bank Boshqaruvi a'zoligiga nomzod Bank Boshqaruvining a'zosi lavozimini egallashga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni Bank kuzatuv kengashi a'zolariga oshkor qilishi shart.

11. Bank boshqaruvi a'zoligiga nomzodlarning ishchanlik obro'si, tajribasi, bilim va ko'nikmalari, mustaqil mulohaza yuritishi, vaqtining yetarliligi va jamoaviy yaroqliligi, shuningdek professional malakasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki talablariga mos bo'lishi lozim.

12. Bank Boshqaruvi a'zoligiga quyidagi shaxslar tayinlanmaydi:

oliy ma'lumoti bo'lmagan;

yetarli darajada bank va moliya sohasidagi qonunchilik bilimlariga ega bo'lmagan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qo'yiladigan talablarga muvofiq bo'lmagan;

avval o'zining qasddan sodir etilgan g'arazli jinoyatlar uchun sudlangan;

avval bankrotlikka uchragan yuridik shaxsga rahbar bo'lgan.

13. Bank boshqaruvi raisi Bank Boshqaruvi tarkibiga nomzod ko'rsatar ekan, bu haqda Kengashga bitim tuzish shartlari, boshqarish faoliyatini mukofotlash va nomzodning bitim tuzish bo'yicha arizasi bilan tasdiqlangan roziligi haqida ma'lum qiladi.

Bank Boshqaruvi raisi bilan Bank nomidan mehnat shartnomasini Bank kuzatuv kengashi raisi yoki Bank kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs imzolaydi. Bank Boshqaruvi raisi o'rinbosari va Boshqaruv a'zolari bilan mehnat shartnomasini Bank nomidan Boshqaruv raisi imzolaydi.

Bank Boshqaruvi raisi va Boshqaruv a'zolari bilan shartnoma aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori asosida 3 (uch) yil muddatga tuziladi. Shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish va (qayta tuzish) yoki uni tugatish (bekor qilish) mumkinligi to'g'risida har yili aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qaror qabul qilinadi.

Imzolangan shartnomada Bank faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tayinlanayotgan mansabdor shaxslarning majburiyatlari va ularning aksiyadorlar umumiy yig'ilishi oldidagi hisobotlarining davriyligi ko'zda tutilgan bo'lishi lozim.

14. Bank Boshqaruvi a'zolari lavozim yo'riqnomasida belgilab berilgan vakolatlar, ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlari, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Bank kuzatuv kengashi va Boshqaruvi qarorlari hamda Bank Boshqaruv raisining ko'rsatmalari doirasida ish tutadi.

15. Bank Boshqaruvi a'zoligiga nomzodlar o'zlarining nomzodlari ko'rib chiqilayotganda aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yoki Bank kuzatuv kengashi majlisida qatnashishlari mumkin.

16. Bank kuzatuv kengashi Bank Boshqaruvi raisi va Boshqaruv a'zolari bilan tuzilgan shartnomani, agar shartnoma tuzishda ular Bank Ustavini qo'pol tarzda buzishga yo'l qo'ygan bo'lsa yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli Bankka zarar yetkazilgan bo'lsa, muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) huquqiga ega.

17. Bank Boshqaruvi a'zosi Bank Ustavi, shuningdek shartnoma shartlarini buzganligi uchun bir vaqtning o'zida shartnoma bekor qilingan holda egallab turgan lavozimidan chaqirib olinishi mumkin. Bank Boshqaruvi a'zosini chaqirib olish va u bilan tuzilgan shartnomani bekor qilish haqidagi qaror ko'pchilik ovoz bilan Bank kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

18. Bank Boshqaruvining raisi Boshqaruv tarkibiga qo'shimcha nomzodlar kiritish yoki Bank faoliyatidagi o'zgarishlar munosabati bilan uning miqdoriy tarkibini qisqartirish va boshqa holatlar yuzasidan hamda Bank Boshqaruvi tarkibidan ayrim a'zolarni chiqarish bo'yicha takliflar kiritish huquqiga ega.

19. Bank Boshqaruvining a'zosini vazifasidan ozod qilish Bank kuzatuv kengashi tomonidan quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

ixtiyoriy ravishda o'z vakolatini topshirganda;

Bank Boshqaruvining a'zosi mazkur Nizomda, u bilan tuzilgan mehnat shartnomasida hamda o'z lavozim yo'riqnomasida bayon qilingan o'z vakolat va majburiyatlarini bajarmaganda;

Markaziy bankning tegishli ko'rsatmasi olinganda;

qasddan sodir etilgan g'arazli jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlikka tortilganligi to'g'risida ma'lumot olinganda;

Bank Boshqaruvi a'zosi vazifalarini bajarish to'g'risida Bank bilan bitim tuzish jarayonida ushbu Nizomning 12-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlarni yashirganda.

Bunda Bank Boshqaruvi a'zosiga qo'yilayotgan e'tirozlar diqqat bilan va xolis tarzda ko'rib chiqilishi ta'minlanishi lozim.

3-bob. Bank Boshqaruvining vakolatlari, huquq va majburiyatlari

20. Bank Boshqaruvining vakolatlariga Bankning joriy faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatlariga yoki Bank kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno. Boshqaruv Bank Ustavi asosida harakat qilib aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Bank kuzatuv kengashida qabul qilingan qarorlarning bajarilishini tashkil etadi.

21. Bank Boshqaruvi quyidagi masalalar yuzasidan mustaqil ravishda qaror qabul qilishga vakolatli:

Bankning nizom, tartib, qoida va yo'riqnoma shaklidagi ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash va ularga o'zgartirishlar kiritish;

Bosh bankning tarkibiy bo'linmalari (departament, markaz va ofislar) to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash va ularga o'zgartirishlar kiritish;

yangi bank xizmati turlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish;

Bankning yillik qurilishlar (yangi bino qurish, mavjud binolarni buzib, qayta qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal va joriy ta'mirlash) manzilli ro'yxatni tasdiqlash;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini bank tizimida ko'rib chiqilishi yakunlari yuzasidan hisobotlarni tasdiqlash;

Bank kuzatuv kengashi tomonidan ruxsat berilgan masalalar yuzasidan xodimlarni rag'batlantirishning aniq mexanizm va tartiblarini amaliyotga joriy qilish;

o'z vakolati doirasida kreditlash operatsiyalarini amalga oshirish, shuningdek kredit liniyalarini jalb qilish;

amaldagi qonunchilik, Markaziy bankning me'yoriy hujjatlari, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va Bank kuzatuv kengashi tomonidan Boshqaruviga bevosita yuklatilgan vazifalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

bank xizmatlari ofisi, bank xizmatlari markazi, minibank, chakana xizmatlar markazi va shu kabi boshqa bo'linmalarni ochish, tugatish (yopish), ular nomini va joylashgan yerini (pochta manzilini) o'zgartirish;

bank xizmatlari ofisi, bank xizmatlari markazi, minibank, chakana xizmatlar markazi va shu kabi boshqa bo'linmalar to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;

Bank xodimlarini yil yakunlari bo'yicha mukofotlashni belgilangan fond doirasida amalga oshirish.

Shuningdek, quyidagi bitimlarni tuzish to'g'risida qaror qabul qilish:

Mazkur nizomning 22-bandi 8-xatboshisida keltirilgan masalalardan tashqari barcha mulklarni qonunchilikda belgilangan vakolat doirasida bevosita yoki bilvosita begonalashtirish bilan bog'liq bitimlar yoki o'zaro bog'liq bir qancha bitimlarni tuzish;

Amaldagi qonunchilik va Bank Ustaviga muvofiq afillangan shaxslar bilan bitim tuzish masalalarini dastlabki tarzda ko'rib chiqish va Bank kuzatuv kengashiga tasdiqlash uchun kiritish.

Bunday bitimlarni tuzish to'g'risida Bank qarorlarini qabul qilish bo'yicha Bank Kengashiga kiritilgan tavsiyalar Bank Boshqaruvining affillanmagan a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Bunday tavsiyalarsiz bitim tuzish to'g'risidagi takliflar Bank Kengashiga ko'rib chiqish uchun kiritilmaydi.

bank faoliyatida foydalanilmayotgan ko'chmas mulk va boshqa mol-mulkni Markaziy bankning me'yoriy hujjatlarida belgilangan tartibda bank faoliyatini amalga oshirishda foydalaniladigan mulklar toifasiga o'tkazish;

Bank Boshqaruvi belgilangan chegaralardan oshib ketgan bitimlar bo'yicha ijobiy qarorlar qabul qilib, so'ngra ularni Bank kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritiladi. Agar Bank Boshqaruvi ijobiy qaror qabul qilmasa bitimni ko'rib chiqish masalasi Bank kuzatuv kengashiga kiritilmaydi.

22. Bank Boshqaruvi quyidagi masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqib, ularni Bank kuzatuv kengashiga va (yoki) aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga tasdiqlash yoki kelishib olish uchun kiritadi:

Amaldagi qonunchilik va Bankning kredit siyosatida belgilangan vakolatlar doirasida Bank kuzatuv kengashi yoki aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiritilgan kreditlash, aktiv va passivlarni boshqarish, investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq bitimlarni imzolash;

Bankning kredit va boshqa siyosatlari loyihalarini;

Bank Ustavi fondini ko‘paytirish yoki kamaytirish;

Bank Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida takliflar;

e’lon qilingan aksiyalarning eng yuqori miqdorini belgilash;

Bankni qayta tashkil etish loyihalari;

Bank tomonidan mol-mulkni (sotib) olish yoki uni boshqa shaxsga berish (sotish, begonalashtirish) yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog‘liq bitim (shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik) yoki o‘zaro bog‘langan bir nechta bitim tuzish, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada bank sof aktivlari miqdorining o‘n besh foizidan ortig‘ini tashkil etsa, kundalik xo‘jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar hamda aksiyalarni va boshqa qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan bitimlar bundan mustasno.

Bankning yillik hisobotlari, buxgalteriya balanslari, foyda va zararlar haqida hisobotlar, foydani taqsimlash va zararni qoplash tartibi;

aksiyalar bo‘yicha yillik va oraliq dividendlarning hajmi va ularni to‘lash;

Bankning joriy faoliyati yakunlari yuzasidan tayyorlanadigan choraklik, olti oylik va yil yakunlari natijalari haqidagi hisobotlarni tasdiqlash;

o‘z aksiyalarini sotib olish (Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olgandan so‘ng), aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog‘ozlarni xarid qilishda aksiyadorlarning imtiyozli huquqidan foydalanmaslik haqida qaror qabul qilish bo‘yicha ularni bo‘lish va jamlash (ularni ochiq, imzolash vositasida joylashtirish hollarida), shuningdek bunday qarorning amal qilish muddati haqida;

Bank aksiyadorlarining yillik va navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishlarini chaqirish bo‘yicha taklif kiritish;

Bankning obligatsiyalari va boshqa qarz majburiyatlarini chiqarish;

Bank mulkining bozor qiymatini aniqlash (shu jumladan mulkni garovga berishda);

Bankning zaxira va boshqa fondlarini ishlatish;

mijozlar va boshqa banklar zararidan qaytarilishiga umid bo‘lmagan qarzlarni Bank balansi hisobidan chiqarish;

qonunchilik va me’yoriy hujjatlardan kelib chiqqan holda, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, Bank kuzatuv kengashi va Bank Boshqaruvi haqidagi Nizomlarga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar loyihasi;

Bank ichki audit haqidagi nizom loyihasi;

Ichki audit xizmati rahbari nomzodi yuzasidan takliflar;

ko‘chmas mulklarni baholash masalalari;

imtiyozli kreditlash maxsus jamg‘armasiga ajratmalar miqdori yuzasidan taklif;

Bankning Qo‘mitalari to‘g‘risidagi nizomlar loyihalari;

Bank filiallarni ochish va tugatish hamda filial to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash;

chet elda shu’ba bankini ochish, filialni tashkil etish, banklarning kapitalida ishtirok etish, shu jumladan chet el banklarini tashkil etishda ishtirok etish;

sho‘ba bank va o‘ziga tobe xo‘jalik jamiyatlarni tashkil etish;

Bankni rivojlantirish biznes-rejasi loyihasi.

Bank kuzatuv kengashi va aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiritilgan barcha masalalar, odatda, dastlabki tarzda Bank Boshqaruvi tomonidan ko‘rib chiqilishi va keyinchalik tasdiqlash uchun tegishliligi bo‘yicha Bank kuzatuv kengashiga yoki aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga kiritilishi kerak, Bank kuzatuv kengashi va aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining mutlaq vakolatiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

23. Bank Boshqaruvining majburiyatlari:

Amaldagi qonunchilik va Bankning ta’sis va ichki me’yoriy hujjatlarida belgilangan talablarga rioya qilinishini nazorat qilish;

Bank kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan barcha siyosatlarning amaliyotga tatbiq qilinishini tashkil qilish;

Bank tizimida kreditlash bilan bog‘liq operatsiyalarning qonunchilik, Hukumat qarorlari, Bankning Kredit siyosati va boshqa ichki me’yoriy hujjatlariga muvofiq olib borilishini nazorat qilish;

Bankning sarmoyasini saqlash va uni bank operatsiyalarining miqyosi va tavakkal darajasiga muvofiqligini ta’minlash maqsadida, Bank Boshqaruvi tomonidan Bank sarmoyalash bo‘yicha quyidagi choralarni kuradi:

sho‘ba va o‘ziga qarashli jamiyatlarni tashkil etish;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan hajmdagi ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi maxsus zaxiralarni tashkil etish;

Markaziy bank belgilagandan yuqori bo‘lmagan bank tavakkali darajasini ta’minlash;

Bank aksiyalarini belgilangan tartibda joylashtirish;

Bankning va umumiy zaxirasini yetarli darajada saqlab turish;

Bankning biznes-rejani amalga oshirishni ta'minlaydi va har chorakda Bank kuzatuv kengashiga uning bajarilishi haqida hisobot berish;

Bankni rivojlantirishning biznes-rejasi zarur o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadida yilda bir bor ko'rib chiqish.

24. Bank Boshqaruvining huquqlari:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining litsenziyasida ko'zda tutilgan operatsiyalarni amalga oshirish;

Bank mulkini va uning sarmoyasini boshqarish;

Bosh bankning tarkibiy bo'linmalari, Bank tarmoqlari, bo'lim va vakolatxonalarning tarkibiy bo'linmalarining faoliyatiga rahbarlikni amalga oshirish;

Bosh bankning tarkibiy bo'linmalari, Bank tarmoqlari, bo'limlar va vakolatxonalar xodimlarining g'ayriqonuniy va nohaq harakatlari ustidan aksiyadorlar va mijozlarning shikoyatlari va takliflarini qabul qilib olib, ko'rib chiqish;

butun Bank, Bank tarmoqlari va faoliyat yo'nalishlari bo'yicha moliya-tijorat faoliyati natijalarini ko'rib chiqish;

depozitlarni qabul qilish, aktivlarni joylashtirish kreditlash, hisob-kitoblar, pul muomalasi, kassa xizmatini ko'rsatish, tashqi iqtisodiy faoliyat, banklararo shartnomalarni imzolash masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilish;

auditorlik tekshiruvlari, taftishlar hamda Bankning tarkibiy bo'linmalari hisobotlarini ko'rib chiqish va ular bo'yicha qarorlar qabul qilish;

Bank va mijozlarning manfaatlarini hisobga olgan holda aktivlar va passivlar bo'yicha operatsiyalarning foiz stavkalarini tartibga solish;

majburiyatlar, kredit-hisob xizmati ko'rsatish, pul va to'lov hujjatlari va xat-hujjatlarni rasmiylashtirishning umumiy shart va tartibini belgilash;

Markaziy bank va davlat statistika organlari bilan kelishgandan so'ng bank tasarrufidagi muassasalar uchun statistik hisobotni ishlab chiqish va amalga kiritish;

Bank veksellari emissiyasi, aylanishi va so'ndirilishi shartlarini tasdiqlash, ularni Markaziy bankka ro'yxatdan o'tkazish uchun kiritish;

Bank sarmoyasi investitsiya qilingan sho'ba korxonalarda, aksiyadorlik jamiyatlarida, qo'shma korxona va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarda Bankning vakolatini amalga oshirish va manfaatlarini himoya qilish;

Bank tarmoqlari rahbarlarini tayinlash;

vakolatxonalar, bo'limlar, boshqarmalar, bosh ofis bo'linmalari va Bank tarmoqlari rahbarlarini lavozimiga tayinlash, xodimlarni tanlash, tayyorlash va foydalanish, mansabdor shaxslarni intizomiy javobgarlikka tortish tartibini belgilash;

Bank tarmoqlari tashkiliy tuzilmasini belgilash;

bank va tijorat siri hisoblangan ma'lumotlar ro'yxatini aniqlash;

Bosh bank va bank tarmoqlarining lavozim shtatlar jadvalini tasdiqlash;

homiylik va xayriya yordami mablag'larini Bank kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan "Biznes reja" doirasida amalga oshirish;

aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Bank kuzatuv kengashining vakolatiga kirmaydigan Bank faoliyatiga doir boshqa masalalarni ko'rib chiqish va hal qilish.

25. Bank Boshqaruvining faoliyati aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish jarayonida, Bank Ustav kapitalini o'zgartirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishda, qo'shimcha qimmatli qog'ozlar chiqarishda, dividend siyosati bo'yicha, aksiyadorlar bilan o'zaro aloqa jarayonida aksiyadorlarning huquq va manfaatlari himoyasini ta'minlashi zarur.

26. Bank Boshqaruvi qat'iy tartibda Bank kuzatuv kengashi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hal etish uchun kiritilgan masalalarni oldindan ko'rib chiqadi va ular bo'yicha tegishli materiallar va qaror loyihalarini tayyorlaydi. Bank kuzatuv kengashi majlisida va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Bank Boshqaruvi raisi yoki vakil qilingan Bank Boshqaruvi a'zosi Bank Boshqaruvining nuqtai nazari haqida ma'ruza qiladi.

27. Bank Boshqaruvi quyidagilarni saqlashi zarur:

Bank Ustavi va unga kiritilgan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan o'zgartirish va qo'shimchalar, Bankni tashkil etish to'g'risidagi qaror, davlat tomonidan ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnoma, bank operatsiyalarini amalga oshirishga litsenziyalar;

Bank balansidagi mol-mulkka bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Bank kuzatuv kengashi va Bank Boshqaruvi tasdiqlaydigan hujjatlar;

Bank tarmoqlari va vakolatxona to'g'risidagi nizom;

yillik moliyaviy hisobot;

aksiyalar emissiyasi risolasi;

buxgalteriya hisobi hujjatlari;

tegishli organlarga taqdim etiladigan moliyaviy hisobot hujjatlari;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Bank kuzatuv kengashi, Bank Boshqaruvi majlislarining bayonnomalari;

aksiyalar soni va turi ko'rsatilgan holda Bankka aloqador (affillangan) shaxslarning ro'yxatlari;

auditor, davlat nazoratining davlatga tegishli organlari xulosasi;

qonunchilikda, Bank Ustavida Bank Boshqaruvi organlarining qarorlarida kuzda tutilgan boshqa hujjatlar.

4-bob. Bank Boshqaruvi a'zosining huquq va majburiyatlari

28. Bank Boshqaruvi a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

Bank Boshqaruvi majlisida shaxsan ishtirok etish, muhokama etilayotgan masala bo'yicha reglamentda ajratilgan vaqt doirasida so'zga chiqish, o'z karashlarini himoya qilish;

muayyan davr mobaynida Bank tuzilmalari faoliyatining natijalari to'g'risida to'liq va ishonarli axborotlar olish;

Bank Boshqaruvida ko'rib chiqish uchun Bank Boshqaruvi vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha takliflar kiritish;

Bank Boshqaruvidagi faoliyati va zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajargani uchun mehnat shartnomasiga muvofiq muayyan mukofot olish;

29. Bank Boshqaruvi a'zolari quyidagilarga majbur:

qonunchilik hujjatlari, Bank Ustavi hamda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hamda Bank kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan strategiya va siyosatlarni amalga oshirishga doir qarorlarga rioya etgan holda majburiyatlarini o'z vakolatlari doirasida bajarish;

o'zlarining vazifa va funksiyalarini amalga oshirishi uchun o'z vakolatlari doirasida faoliyat yuritish;

zarur va oshkora ma'lumotni belgilangan muddatlarda olish, ular bilan bog'liq tegishli chora-tadbirlarni ko'rish hamda shaxsiy malaka va tajribaga tayangan holda qarorlar qabul qilish;

manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarmaslikka oid talablarga rioya etish;

Bank Boshqaruvi organlari, shu jumladan, bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi va Bank kuzatuv kengashiga nisbatan tenglik tamoyiliga rioya etish;

benuqson ishchanlik obro'siga ega bo'lish;

Bank va uning aksiyadorlari manfaatlari yo'lida harakat qilish;

Bank obro'si, uning rivojlanishi va moliyaviy barqarorligining mustahkamlanishini oshirishga yo'naltirilgan tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishga erishish;

o'z xizmat mavqeyidan vijdonan, hamda Bank Ustavida yozilgan vazifalarini yaxshi bajarish yo'lida foydalanish;

Bank boshqaruvi, kuzatuv kengashi, auditori e'tiboriga quyidagi ma'lumotlarni yetkazish:

a) mustaqil yoki o'ziga qarashli shaxs (shaxslar) orqali ovoz beruvchi aksiya (ulush, pay)larning 10 % va undan ortiq foiziga egalik qiluvchi yuridik shaxslar to'g'risida;

b) Bank boshqaruvi organlarida o'zlari rahbarlik lavozimlarni egallab turgan yuridik shaxslar to'g'risida;

d) Bankning affillangan shaxsi bilan tuzilishi taxmin qilinadigan yoki ularga ma'lum bitimlarda affillangan shaxs deb e'tirof etilishi mumkin bo'lgan bitimlar to'g'risida.

Bank bilan bitim masalasi hal qilinayotganda bu bitimda o'zining affillangan shaxs deb e'tirof etilishi mumkin bo'lsa, Bank boshqaruvi majlisida va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida mazkur masalani hal etish va ovoz berishda qatnashmaslik

30. Bank Boshqaruvi raisi Bank Boshqaruvining vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha majburiyat va vakolatlarni Boshqaruv a'zolari o'rtasida taqsimlaydi.

31. Bank boshqaruvi a'zolariga to'lanadigan haq va ularning eng yuqori miqdorlari Umumiy yig'ilish tomonidan belgilanadi.

Bunda, Bank Boshqaruvi a'zolarining ish samaradorligi ko'rsatkichlari (KPI) va ular asosida to'lanadigan haq, shuningdek, ijtimoiy va boshqa to'lovlar Umumiy yig'ilish tomonidan o'rnatilgan eng yuqori miqdordan oshmagan doirada Bank kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

5-bob. Bank Boshqaruvi raisining huquq va majburiyatlari

32. Bank Boshqaruvi raisi Bankning oliy mansabdor shaxsi hisoblanib, qonunchilik, Bank Ustavi, mazkur Nizom va Bank kuzatuv kengashining unga bergan vakolatlariga muvofiq, Bankning butun faoliyatiga rahbarlik qiladi. Bank Boshqaruvi raisi Bank kuzatuv kengashining faoliyatida maslahat ovozi bilan ishtirok etadi.

33. Bank Boshqaruvining raisi quyidagi huquqlarga ega:

Bank nomidan hujjatlarni imzolash;

Bank nomidan ishonchnomasiz harakat qilish, hisob varaqlarni ochish, bitimlarni amalga oshirish, shartnomalarni imzolash, ishonchnomalar berish, O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida davlat, huquqni muhofaza qilish, jamoat organlari, banklar, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar bilan amalga oshiriladigan munosabatlarda Bank nomidan ish ko'rish;

Bankning barcha xodimlari bajarishi zarur bo'lgan Bank faoliyatiga oid masalalar bo'yicha buyruq va farmoyishlar chiqarish;

Bank kuzatuv kengashi tayinlagan shaxs — Bank Boshqaruvi raisining o'rinbosari, Bank Boshqaruvi a'zosi, bosh buxgalter, Bank tarmoq rahbari bilan Bank nomidan mehnat shartnomasi tuzish;

o'rinbosarlari o'rtasida vazifa va vakolatlarni taqsimlash;

o'z vakolatiga kiruvchi ayrim masalalarni hal etishni o'zining o'rinbosarlariga, Bank Boshqaruvi a'zolariga, tarkibiy bo'linmalar rahbarlariga topshirish;

Bankning shtat jadvalini tasdiqlash, xodimlarning lavozim maoshlarini belgilash;

Bank xodimlarining lavozim maoshlariga rag'batlantirish to'lovlari va qo'shimchalar belgilash;

xodimlarni ishga tayinlash va bo'shatish, ular bilan mehnat shartnomalarini imzolash;

Bank xodimlarini rag'batlantirish masalalarini hal etish, intizomiy jazolarni qo'llash.

34. Bank Boshqaruvi raisining burchlari:

amaldagi qonunchilikka, Markaziy bank tomonidan belgilangan qoida, yo'riqnomalar va boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya qilgan holda Bankning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Bank kuzatuv kengashi va Boshqaruvi qarorlarining ijrosini tashkil etish;

Bank kuzatuv kengashi va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga Bank faoliyati to'g'risida hisobotlarni taqdim etish;

Bank tomonidan qabul qilingan shartnoma majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash;

Bankni rivojlanishi uchun zarur bo'lgan miqdorda foyda olish, ijtimoiy masalalarni hal etish va aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash;

Bankni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalarini ishlab chiqishga rahbarlik qilish, ularning ijrosini tashkil etish va nazorat qilish;

Bank faoliyatida qonun hujjatlari talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

Bankning buxgalteriya hisobi va hisobotining yetarli va ishonchli holatini va ishonchliligini tashkil etish va ta'minlash, Markaziy bank va tegishli organlarga yillik hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlarni o'z vaqtida taqdim etilishini nazorat qilish;

aksiyadorlarga va ommaviy axborot vositalariga e'lon qilishlari uchun Bank faoliyati haqidagi moliya hisobotlarini taqdim etish;

Bank kuzatuv kengashi, auditor talabiga binoan Bankning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni taqdim etish;

davlat statistika hisobotini tegishli organlarga to'la va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash;

Bank va mijozlarining bank yoki tijorat sirini o'zida mujassamlashtirgan axborotlarini Bank xodimlari tomonidan sir saqlash;

Bankni malakali xodimlar bilan ta'minlash, ularning bilimlari, malakalari, tajriba va qobiliyatlaridan unumli foydalanish choralarini ko'rish;

mehnat va texnologiya intizomini saqlab turish;

Bank xodimlarining ijtimoiy kafolati va mehnatni muhofaza etish talablariga rioya qilish;

Bank Boshqaruvi vakillarining jamoa muzokaralarida ishtirok etishini ta'minlash. Jamoa shartnomasi va bitimlarini tuzishda ish beruvchi sifatida ishtirok etish. Jamoa shartnomasidagi majburiyatlarni bajarish;

aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Bank kuzatuv kengashiga ishlarning holati va Bank faoliyati to'g'risidagi ma'ruzalarni belgilangan muddatlarda taqdim etish;

aksiyadorlarning amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda ma'lumotlarni olishlari, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ishtirok etish, dividendlarni hisoblash va tulash bo'yicha ularning huquqlariga rioya etish.

35. Bank Boshqaruvi raisi Bankka yuklatilgan vazifalarning bajarilishi, O'zbekiston Respublikasi qonunlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Hukumatning qaror va farmoyishlarining, Bankning shartnomalar bo'yicha qabul qilgan majburiyatlarining bajarilishi yuzasidan shaxsan javobgardir.

Bank Boshqaruvi raisining huquq va majburiyatlari u bilan tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan.

36. Bank Boshqaruvi raisi o'z joyida bo'lmagan hollarda uning birinchi o'rinbosari, u ham bo'lmagan taqdirda Bank Boshqaruvi raisi o'rinbosarlaridan biri buyruq asosida Bank Boshqaruvining raisi vazifasini vaqtincha bajaradi.

37. Yangi saylangan (tayinlangan) Bank Boshqaruvi raisi Bank kuzatuv kengashi raisi ishtirokida topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida muhr, burchak muhr, xos ish qog'ozlari, xona va seyflarning kalitlari, hamda Bankning boshqa mol-mulki va hujjatlarini o'zidan avvalgi raisdan qabul qilib oladi. Avvalgi Bank Boshqaruvi raisi bo'lmagan holatlarda qabul qilish — topshirish dalolatnomasi rais vazifasini vaqtincha bajaruvchi ishtirokida tuziladi.

Dalolatnomada Bankning moliyaviy holati aks ettiriladi va albatta quyidagi hujjatlar mavjudligi ko'rsatib o'tiladi:

a) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vakolatli mansabdor shaxsi imzo chekkan, Markaziy bank muhri bilan tasdiqlangan, Bankning ro'yxatdan o'tganligi to'g'risida sar-varaqda belgi qo'yilgan Bank Ustavi;

b) Bankni tashkil etish to‘g‘risidagi ta’sis shartnomasi nusxasi;

d) ta’sis yig‘ilishi bayonnomasi;

e) Bank kuzatuv kengashi raisi tomonidan imzolangan aksiyadorlar ro‘yxati;

f) Bankni ro‘yxatdan o‘tkazish va unga litsenziya berish to‘g‘risidagi Markaziy bank Boshqaruvining qarori;

g) bank operatsiyalarini o‘tkazish uchun berilgan litsenziyaning asl nusxasi.

Yuqorida qayd etilgan hujjatlar Bankning yuridik hujjatlar to‘plamini tashkil etadi va doimo Bankning yuridik xizmatida saqlanadi.

6-bob. Bank Boshqaruvining reglamenti

38. Bank Boshqaruvi majlislari ish rejasiga muvofiq o‘tkaziladi. Boshqaruv majlislari Bank Boshqaruv raisi yoki Boshqaruvning kamida 3 a’zosining talabiga binoan chaqiriladi. Zaruriyat tug‘ilganda, Bank Boshqaruvi raisi navbatdan tashqari majlis chaqirishi mumkin.

39. Majlislarni Bank Boshqaruv raisi, u bo‘lmagan taqdirda uning o‘rinbosarlaridan biri boshqaradi.

Boshqaruv majlislari, odatda, yopiq holda o‘tkaziladi-Majlis ishtirokchilarining davrasini Bank Boshqaruvi raisi belgilaydi.

Bank Boshqaruvi uning majlisida Boshqaruv a’zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda qaror qabul qilishga haqli. Qaror ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lganda, Bank Boshqaruv raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Boshqaruv majlisida uning a’zolari masofadan turib ham qatnashishi mumkin.

Bank Boshqaruvi muhokamasiga kiritiladigan masalalar (qaror loyihasi) EHA dasturi orqali ham kiritilishi mumkin. Bunda, qaror loyihasi va unga biriktirilgan ilovalar tegishli tarkibiy bo‘linma rahbarlari bilan kelishiladi va Bank Boshqaruvi a’zolari hamda Bank Boshqaruvi raisi tomonidan ERI orqali imzolanadi.

Bank Boshqaruvi a’zosi qabul qilingan qarordan norozi bo‘lsa, bu haqda Bank kuzatuv kengashiga ma’lum qilishga haqli.

40. Bank Boshqaruvi faoliyatining rejali bo‘lishini ta’minlash maqsadida Bank tuzilmalarining rahbarlari Boshqaruv majlisida ko‘rib chiqilishi talab etiladigan masalalarni oldindan taqdim etishlari shart. Takliflarda masalaning mohiyati, materialni tayyorlash uchun mas’ul shaxs, ko‘rib chiqish muddati ko‘rsatiladi.

Boshqaruv ish rejasi Bank Boshqaruvi tomonidan belgilangan muddatlarda tasdiqlanadi.

41. Bank Boshqaruvi majlisining kun tartibi Bank Boshqaruvi kotibi tomonidan tuziladi. Masalani kun tartibiga kiritish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

Bank Boshqaruvining ish rejasi;

Bank Boshqaruvi raisining topshiriqlari;

Bank Boshqaruvi a’zolarining tashabbuskor takliflari;

Ichki audit xizmati rahbarining takliflari;

Bank tashqi auditorining takliflari;

Bank Boshqaruvining navbatdagi majlisi kun tartibiga o‘zgartirish yoki qo‘shimchalar kiritish, rejadagi masalalarni ko‘rib chiqish muddatlarining o‘zgartirilishi yoki ularning ko‘rib chiqishdan olinishiga faqat Bank Boshqaruvi raisining ruxsati bilan yo‘l quyiladi;

Bank boshqaruvi vakolatiga kiradigan boshqa masalalar.

42. Bank Boshqaruvi ko‘rib chiqishi uchun masalani tayyorlashga mas’ul mansabdor shaxs qaror loyihasi, ma’lumotnoma va unga zarur boshqa materiallarni kamida 1 kungacha muddatda Bank Boshqaruvi kotibiga topshirishi shart. Bank Boshqaruvi muhokamasiga takliflar iqtisodiy va huquqiy asosga ega va tegishli xizmatlar bilan kelishilgan bo‘lishi kerak.

Bank Boshqaruvi qarorining loyihasi mazkur ish joyidagi ishlar holatining bahosi, kelgusi va joriy vazifalar, ularni hal etish yo‘llari, ijro muddatlari, aniq bo‘lishi, ijrochilarni o‘z ichiga olishi zarur. Xajmi bo‘yicha qaror loyihasi 5 sahifadan oshmasligi lozim. Loyihaga masalani tayyorlagan tuzilma rahbari va zaruriyatga qarab, boshqa manfaatdor shaxslar bilan kelishilgan holda xizmat yozishmasi orqali kotibga taqdim etadi.

Muhokamadagi masala bo‘yicha ishlar holatining tahlilini o‘z ichiga olgan ma’lumotnoma hajm jihatdan 4 sahifadan oshmasligi shart, u masalani tayyorlagan tuzilma rahbari tomonidan imzolanadi.

Bank Boshqaruvi kotibi, Bank Boshqaruvi a’zolarini kun tartibiga muvofiq, materiallar bilan, qoidaga ko‘ra, majlisgacha kamida 1 kun avval ta’minlaydi.

43. Bank boshqaruvi qarori loyihasi EHA dasturi orqali elektron shaklda yaratiladi.

Qarordan norozi bo‘lgan Bank boshqaruvi a’zosi unga o‘zining alohida fikrini ilova qilishi mumkin.

44. Bank Boshqaruvi qarorlari loyihalarini majlisda qilingan taklif va mulohazalarni hisobga olib, ishlash uchun raislik qiluvchi masalani ko‘rib chiqishga kiritgan tegishli tuzilmalarga topshiriqlar beradi va ularni qayta ishlash muddatlarini belgilaydi. Agar mazkur muddatlar maxsus belgilanmagan taqdirda, loyihalarni qayta ishlash majlisdan keyingi ikki kun davomida amalga oshiriladi. Bank Boshqaruvi a'zolarida qaror loyihasi bo'yicha turli karashlar va mulohazalar bo'lmasa, u ma'ruza va muhokama etilmasdan qabul qilinishi mumkin.

45. Bank boshqaruvi qarori rasmiylashtirilgandan so'ng (ilovalari bilan) EHA dasturida saqlanadi. Bank boshqaruvi qarori doimiy saqlanadigan hujjat hisoblanadi. Bank boshqaruvi kotibi Bank boshqaruvi qarorini saqlash va hisobini yuritish uchun mas'ul shaxs hisoblanadi.

Bank Boshqaruvi qarori rasmiylashtirilgandan so'ng, EHA dasturi orqali Bank Boshqaruvi a'zolari va qaror qismida belgilangan vazifalar bo'yicha tegishli tarkibiy bo'linma rahbarlariga yuboriladi.

46. Bank Boshqaruvi qarori loyihasini tayyorlagan tarkibiy bo'linmada uning ijrosi yuzasidan nazorat (agar qarorning o'zida boshqa holat ko'zda tutilmagan bo'lsa) belgilanadi. Har chorakda kamida bir marta, mas'ul tarkibiy bo'linma rahbarlari tomonidan Bank Boshqaruvi kotibiga qaror ijrosi yuzasidan axborot taqdim etadi hamda kotibi ushbu materiallarni umumlashtirib, natijasi yuzasidan Bank Boshqaruvi a'zolariga taqdim etadi. Bank Boshqaruvi a'zolari tegishli qarorlarni nazoratdan olish yoki ularni o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida takliflar kiritiladi.

Zarur hollarda Bank Boshqaruvi qarorini ijro etish muddati Bank Boshqaruvi raisining ruxsati bilan muddati uzaytirilishi mumkin.

47. Bank Boshqaruvi qarorlarining bajarilish qismida ijro intizomining holati to'g'risida axborot yig'ish va umumlashtirish Bank Boshqaruvi kotibiga yuklatiladi. Qarorda belgilangan topshiriqlarni ijro etish muddati tugagach, ammo chorakda kamida bir marta, tarkibiy bo'linma rahbarlari Bank Boshqaruvi kotibiga keyinchalik Bank Boshqaruvi raisiga yetkazish uchun qabul qilingan qarorlar ijrosi to'g'risida axborot taqdim etadilar. Zarur hollarda Bank Boshqaruvi tegishli qarorlarni nazoratdan olish yoki ularni o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida takliflar kiritiladi.

48. Bank Boshqaruvi qaroridan ko'chirmalar quyidagilarga beriladi:

Bank kuzatuv kengashi raisi va a'zolariga ularning so'roviga binoan majburiy tartibda;

Bankning boshqa mansabdor shaxslari va auditor so'roviga binoan faqat Bank Boshqaruvi raisining ruxsati bilan;

amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxs va organlarga (shu jumladan davlat organlariga).

49. Bank Boshqaruvi kotibi Boshqaruv Raisining yoki uning vakolatli o'rinbosari tomonidan mas'ul tuzilmaviy bo'lim tarkibidan tasdiqlanadi.

Bank Boshqaruvi majlislari ochiq yoki masofaviy tarzda o'tkaziladi.

Bank Boshqaruvi majlislari o'tkazish Reglamenti Boshqaruv tomonidan belgilangan Tartibga muvofiq ishlab chiqiladi.

7-bob. Kadrlar siyosatini amalga oshirish

50. Bank Boshqaruvi yuqori malakali rahbarlar va xodimlarni jalb qilish va olib qolish strategiyasini ishlab chiqadi, Bank kuzatuv kengashiga ko‘rib chiqish uchun kiritadi va amalga oshiradi.

51. Kadrlar siyosati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Bankda ishlash uchun mutaxassislarni tanlash tizimi;

xodimlarni mukofotlash, rag‘batlantirish va jazolash tizimi;

xodimlarni o‘qitish va qayta o‘qitish dasturi;

yuqori lavozimlarda bo‘sh o‘rinlar paydo bo‘lgan hollarda vorislik siyosati;

Bankning tarmoqlari va bo‘limlari, boshqarma va bo‘limlari rahbarlarini, mutaxassislar va boshqa xodimlarini ishdan bo‘shatish majburiy bo‘lib qoladigan hollarni aniqlash;

xodimlar faoliyatini baholashning rasmiy jarayoni.

52. Bank Boshqaruvi Bank va uning xodimlari o‘rtasida mehnat munosabatlari yollashning shartnoma tizimi asosida tashkil etilishini ta’minlaydi;

53. Bank Boshqaruvi quyidagilarni ishlab chiqib amalga oshiradi:

Bank tarmoqlari va tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari xizmatlari mutaxassislarining ishiga baho berish mezonlari;

odob-axloq kodeksi va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish choralari;

bilimsizligi, nohalolligi, manfaatlar to‘qnashuvi yoki boshqa sabablar oqibatida Bank xodimlari o‘z zimmalariga yuklatilgan vazifalardan chetlashtiriladigan shart-sharoitlar ro‘yxati.

8-bob. Bank Boshqaruvi raisi va a’zolarining javobgarligi

54. Bank Boshqaruvi raisi va a’zolari qonunchilikka va Bank Ustaviga muvofiq qabul qilayotgan qarorlari uchun javobgardirlar.

Ovoz berishda qatnashmagan yoki bankka ziyon yetishga olib kelgan qarorga qarshi ovoz bergan Bank Boshqaruvi raisi va a’zolari javobgarlikdan ozod etiladilar.

55. Agar Bank Boshqaruvi raisi va a’zolari aksiyadorlik jamiyati tomonlaridan biri hisoblangan bitimdan moliyaviy manfaatdor bo‘lgan taqdirda, u qaror qabul qilinguncha o‘zining manfaatdorligi to‘g‘risida xabar berishga majbur va ovozga qo‘yilganda qatnashmaydi.

56. Bank Boshqaruvi raisi va a’zolari mehnat munosabatlarida yo‘lga qo‘yilgan xizmat mavqeyi imkon beruvchi huquqlardan yuridik va jismoniy shaxslar maqsad va 1 manfaatlari yo‘lida foydalanmasliklari kerak.

57. Bank Boshqaruvi raisi va a'zolari Bank Boshqaruviga qarorlar qabul qilishda ta'sir ko'rsatganlari uchun mukofot olishga haqlari yo'q va bank mol-mulkidan shaxsiy manfaat ko'rish maqsadida harakat qilishga yo'l qo'ymasliklari kerak.

58. Bank Boshqaruvi raisi va a'zolari shu lavozimlarda ishlayotgan davrda, faoliyati Bankka mijozlarga xizmat ko'rsatishda qiyinchilik tug'diruvchi boshqa aksiyadorlik jamiyatlarini ta'sis etish va ta'sis etishda ishtirok etish huquqiga ega emaslar.

Bank Boshqaruvi raisi va a'zolari lavozimga tayinlanish jarayonida shu kabi korxonalardagi ishtirokini to'xtatishi va bu haqda Bank kuzatuv kengashiga xabar berishi lozim.

59. Bank boshqaruvi raisi va a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutmaganliklari uchun amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Agar jamiyatning ijroiya organi tomonidan yirik bitim yoki affillangan shaxslar bilan bitim tuzish tartibi buzilganligi natijasida jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa va bunda jamiyat direktorining yoki boshqaruv a'zolarining yoxud ishonchli boshqaruvchining aybi qonunchilikda belgilangan tartibda isbotlansa, jamiyatning kreditorlar oldidagi qarzdorligini qoplash uchun uning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda jamiyatning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi.

9-bob. Yakuniy qoidalar

60. Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida Bank Boshqaruvi a'zosi xizmat mavqeyini suiiste'mol qilish orqali shaxsiy naf olishga, shuningdek u o'ziga taalluqli bo'lgan ishlarni ko'rib chiqishda yoki o'ziga aloqador shaxslarga taalluqli bo'lgan ishlarni ko'rib chiqishda ishtirok etishga haqli emas.

Kun tartibiga bevosita Bank Boshqaruvi a'zolariga yoki ularga aloqador shaxslarga taalluqli bo'lgan masala kiritilgan taqdirda, ushbu Bank Boshqaruvi a'zosi tegishli hujjat bo'yicha qaror qabul qilinguniga qadar Bank Boshqaruvi raisini xabardor qilishi va o'zini-o'zi rad etishi lozim. Bunda ushbu Bank Boshqaruvi a'zosi ushbu yig'ilishda qatnashishi va ovoz berishi mumkin emas.

Bank Boshqaruvi raisi (a'zosi) o'zining bevosita bo'ysunuvidagi xodimlarni yoki boshqa xodimlarni bevosita yoki bilvosita o'zining shaxsiy manfaatlarini ko'zlovchi harakatlarga (harakatsizlikka) majburlamasligi shart.

Boshqaruv Raisining birinchi o'rinbosari: **A.Ergashev**

№ 173
2024 yil «29» «noyabr»
kelishuvchilar: F.To‘rayev, D.Abdukadirov, A.Orifjonov, Y.Sultanov, S.Sanjarov, B.Saidxonov, A.Xujamuratov, A.Omonov, A.Yoqubjonov, U.Aminova

https://hujjat.sqb.uz/?pin=bO68oM28&id=33180e52-2884-474f-85af-cfcb51b31e65

"O'zsanoatqurilishbank" ATB
Boshqaruvi to'g'risidagi nizomiga
ILOVA

Bank boshqaruviga kiritiladigan masalalar
RO'YXATI

T/r	Qaror loyihasi	Talab etiladigan hujjat nomi
1	Bankning shtat jadvalini tasdiqlash, xodimlarning lavozim maoshlarini belgilash	1. Bank Boshqaruvi muhokamasiga kiritish uchun mazkur Nizomning 41-bandida belgilangan asoslar 2. Amaldagi va yangi shtat jadvali
2	Bank xodimlarining rag'batlantirish masalalarini hal etish, intizomiy jazo choralari qo'llash va qo'shimchalar belgilash	1. Bank Boshqaruvi muhokamasiga kiritish uchun mazkur Nizomning 41-bandida belgilangan asoslar 2. Bank kollegial organlari qarori
3	Kredit ajratish masalasi	1. Bank kollegial organ qarorlarida Bank Boshqaruvi muhokamasiga kiritish yuzasidan qabul qilingan qaror 2. Risk xulosasi 3. Yuridik xulosa 4. Moliyaviy xulosa
4	Ajratilgan kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish	1. Bank Boshqaruvi muhokamasiga kiritish uchun mazkur Nizomning 41-bandida belgilangan asoslar 2. Risk xulosasi 3. Yuridik xulosa 4. Moliyaviy xulosa
5	Yangi shartlardagi bank mahsulotlarini joriy qilish	1. Bank Boshqaruvi muhokamasiga kiritish uchun mazkur Nizomning 41-bandida belgilangan asoslar 2. Bank kollegial organlari qarori 3. Bank mahsuloti pasporti

T/r	Qaror loyihasi	Talab etiladigan hujjat nomi
6	Bank faoliyati to'g'risida hisobotlarni taqdim etish	1. Bank Boshqaruvi muhokamasiga kiritish uchun mazkur Nizomning 41-bandida belgilangan asoslar 2. Bank kollegial organlari qarori 3. Hisobot loyihasi
7	Tarkibiy bo'linma Nizomini tasdiqlash	1. Bank Boshqaruvi muhokamasiga kiritish uchun mazkur Nizomning 41-bandida belgilangan asoslar 2. Amaldagi va yangi nizom
8	Tarkibiy bo'linma Tartibini tasdiqlash	1. Bank Boshqaruvi muhokamasiga kiritish uchun mazkur Nizomning 41-bandida belgilangan asoslar 2. Amaldagi va yangi tartib
9	Bank vakolatli organlari tarkibini o'zgartirish	1. Bank Boshqaruvi muhokamasiga kiritish uchun mazkur Nizomning 41-bandida belgilangan asoslar 2. Amaldagi va yangi tarkib
10	Homiylik	1. Bank Boshqaruvi muhokamasiga kiritish uchun mazkur Nizomning 41-bandida belgilangan asoslar 2. Homiylik masalasida yuqori turuvchi tashkilotlardan kelgan asoslantiruvchi hujjat
11	Boshqalar	1. Bank Boshqaruvi muhokamasiga kiritish uchun mazkur Nizomning 41-bandida belgilangan asoslar 2. Risk xulosasi 3. Yuridik xulosa 4. Moliyaviy xulosa 5. Bank kollegial organlari qarori

APPENDIX No. 2
to the minutes of the General Meeting of Shareholders of JSCB "Uzpromstroybank" dated April 10, 2025,
No. 01/2025

APPENDIX No. 1
to the Resolution of the Supervisory Board of JSCB "Uzpromstroybank" dated December 27, 2024,
No. 2024/38

APPENDIX
to the Resolution of the Management Board of JSCB "Uzpromstroybank" dated December 2, 2024,
No. 700

(Seal of the Bank)

REGULATIONS
on the Management Board of JSCB "Uzbek Industrial and Construction Bank"

(New Edition)

Chapter 1. General Provisions

1. These Regulations have been developed in accordance with the Laws of the Republic of Uzbekistan "On Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights" and "On Banks and Banking Activities", the Regulation on the Procedure and Conditions for Licensing Banking Activities (registration number 3252, June 30, 2020), the Regulation on Corporate Governance in Commercial Banks (registration number 3254, June 30, 2020), and other legislative acts, as well as the Bank's Charter.

2. These Regulations define the status of the Management Board of JSCB "Uzbek Industrial and Construction Bank" (hereinafter referred to as the Bank), and regulate its activities, the appointment procedure for its members, and their rights and obligations.

3. The Bank's Management Board is the executive body of the bank's management, which directs the daily activities of the Bank in accordance with the operational strategy and management system approved by the Bank's Supervisory Board, and is responsible for its results.

4. The Bank's Management Board is accountable to the General Meeting of Shareholders and the Supervisory Board of the Bank.

5. The Chairman of the Bank's Management Board leads the Bank's Management Board. In addition to the Chairman, the Management Board may include, by virtue of their positions, the Deputy Chairmen of the Bank's Management Board, the Chief Risk Officer, the Chief Financial Officer, the Bank's Chief Accountant, the head of the Bank's legal service, as well as the heads of the main structural subdivisions (departments and divisions) of the Head Bank.

Chapter 2. Organization of the Bank's Management Board

6. The Supervisory Board of the Bank shall determine the number of members of the Management Board. The number of members of the Management Board shall be an odd number, not exceeding 9 (nine) persons.

7. Decisions on the number of members and the composition of the Bank's Management Board shall be adopted by a simple majority vote of the total members of the Bank's Supervisory Board.

8. The previous members of the Management Board may be reappointed by the Supervisory Board to the new Management Board an unlimited number of times. However, a person appointed (or reappointed) as Chairman of the Management Board may not serve as Chairman of the Management Board for more than two consecutive terms.

9. Candidates for the positions of Chairman of the Management Board, his/her deputies, and the Chief Accountant of the Bank shall be appointed by the Supervisory Board.

Other members of the Management Board shall be appointed by the Supervisory Board upon the recommendation of the Chairman of the Management Board, from among the heads of other structural divisions or highly qualified specialists of the Bank. As a rule, candidates must have at least three years of experience in leadership positions within the banking and financial system.

10. The Supervisory Board's consideration of candidates for membership on the Management Board shall be conducted on an individual basis with the candidate's participation. A candidate for membership on the Management Board must disclose to the members of the Supervisory Board any information that may prevent him/her from holding the position of a Management Board member.

11. Candidates for membership on the Management Board must possess the business reputation, experience, knowledge and skills, independent judgment, sufficient time, and teamwork abilities, as well as professional qualifications that meet the requirements of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan.

12. The following persons shall not be appointed as members of the Management Board:

those without a higher education degree;

those who do not possess sufficient knowledge of banking and financial legislation, or who do not comply with the requirements set by the Central Bank of the Republic of Uzbekistan;

those previously convicted for premeditated crimes committed with mercenary motives;

those who have previously managed a legal entity that went bankrupt.

